

KVANTITATIVLIKNING TURLI TIZIMLI TILLARDAGI LINGVOMADANIY TASVIRI

Karimova Shaxloza Boyquzi qizi

Farg'ona davlat universiteti, katta o'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14498817>

Annotatsiya: Ushbu maqolada kvantitativlik tushunchasining turli madaniyatlardagi lingvokulturologik talqini tahlil qilingan. Raqam va sonlarning diniy, ramziy va ijtimoiy jihatlarida asosida madaniyatlar o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar ko'rib chiqilgan. Xususan, turli xalqlarning an'analari va diniy qarashlarida uch raqami muhim ahamiyatga ega ekanligi misollar yordamida yoritilgan.

Kalit so'zlar: kvantitativlik, lingvokulturologiya, raqamlar, madaniy talqin, uch soni.

Аннотация: В статье анализируется лингвокультурологическая интерпретация понятия количественности в разных культурах. Рассматриваются религиозные, символические и социальные аспекты чисел, их роль в культурных традициях. Особое внимание уделяется значению числа три в обычаях и верованиях различных народов.

Ключевые слова: количественность, лингвокультурология, числа, культурная интерпретация, число три.

Annotation: The article analyzes the linguocultural interpretation of the concept of quantitateness in different cultures. Religious, symbolic, and social aspects of numbers are explored, highlighting their role in cultural traditions. Special attention is given to the significance of the number three in the customs and beliefs of various nations.

Keywords: quantitateness, linguocultural studies, numbers, cultural interpretation, number three.

Kvantitativlik tushunchasi, ya'ni miqdoriy yondashuv turli madaniyatlarda har xil talqinlanishi mumkin. Bu tushuncha matematika, fizika, iqtisodiyot kabi fanlarda aniq miqdoriy ma'lumotlarga tayangan holda tushunilsa, boshqa sohalarda, jumladan, madaniyatshunoslikda yoki ijtimoiy fanlarda, uning ma'nosi kengayishi mumkin.

Masalan, G'arb madaniyatlarida kvantitativlik tushunchasi aniqlik va muayyanlikka urg'u beradi. Chunonchi, tadqiqotlarda aniq statistika va ma'lumotlarni yig'ish keng tarqalgan. Bu yerda kvantitativ metodlar ilmiy bilimlarni aniq va obyektiv qilib ko'rsatishga qaratilgan.

Ayni paytda, boshqa madaniyatlarda, masalan, sharq madaniyatida kvantitativlikka ko'proq metaforik yoki falsafiy ma'nolar berilishi mumkin. Misol uchun, xitoy falsafasida raqamlar va miqdoriy ma'lumotlar tafsirlash ma'naviy va ramziy o'lchovlarga ega bo'lishi mumkin.

Har bir madaniyat o'zining o'ziga xos yondashuvlari va tushunchalari asosida kvantitativlikni talqin qiladi va bu turli sohalarda turlicha amaliy qo'llanilishiga olib keladi.

Qadimdan insoniyat uchun til va madaniyat uyg'unlashib, tilda madaniyatning yoki aksincha, madaniyatning tilda aks etishini kuzatish mumkin. Tilshunoslikning lingvokulturologiya bo'limi har bir xalqning madaniyatini, tilda namoyon bo'lish hodisalarini o'rganib, unda madaniyatning namoyon bo'lish vositalari haqida bahs yuritadi.

Lingvokulturologiya – bu til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqliklarni o'rganuvchi fan sohasi. Ushbu soha tilning madaniyatdagi o'rni va uning ijtimoiy hayotdagi roli, shuningdek, madaniy kontekstlarda tilning qanday ishlatilishini o'rganadi.

Lingvokulturologiya, tilshunoslik bilan madaniyatshunoslikni birlashtirgan holda, tilning madaniy aspektlarini va madaniyatning tilshunoslikka ta'sirini chuqur tahlil qiladi. Ushbu soha, til va madaniyatning o'zaro ta'sirini, tildagi metaforalar, frazeologizmlar va boshqa til birliklarining madaniy ma'nolarini o'rganish orqali ham tilni, ham madaniyatni yanada yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Lingvokulturologiya tilning madaniy birliklarini madaniyatning qismi sifatida o'rganadi. Bu ko'proq olamning milliy lisoniy mazarasini hosil qilishga o'xshaydi. Bunda til millat mentalitetining ko'zgusi sifatida namoyon bo'ladi [5,8].

Kvantitativlikning lingvomadaniy xususiyatlarini va turli madaniyatlardagi talqini masalasi ancha qiziqarli va yangi tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, kvantitativlikning lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda, avvalo, kvantitativlikning asosiy ifoda vositalaridan hisoblangan sonlar va leksik vositalar, frazeologik birliklar orqali kvantitativlikning turli madaniyatlardagi talqiniga e'tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz.

Kvantitativlikning turli madaniyatlardagi ifodalanishini tahlil qilar ekanmiz, madaniyat bilan bog'langan va aks etadigan eng keng tarqalgan vosita bu raqam-sonlar, deb hisoblaymiz. Sababi, raqam va sonlarning shakli turli madaniyatlarda deyarli o'xshash bo'lsa ham ifoda maqsadlari borasida turli xalqlarda turlicha qarashlar mavjud. Raqamlar bilan bog'liq bo'lgan holatlar va uning turli millatlarda turlicha talqinini uchramiz. Madaniyatlararo mutanosibliklar va o'xshashliklar ham talaygina. Shunday talqinlardan biri bu raqamlarning ilohiylashtirilishi hisoblanadi.

Ilohiylashtirishda asosiy manba bu diniy qarashlardir. Diniy bilimlardan kelib chiqqan holda, xalqlarning raqamlarini ilohiylashtirish holati yuzaga kelgan, deb hisoblaymiz. Bora-bora xalqlarda raqamlar bilan bog'liq bo'lgan irimlar ham paydo bo'lishiga sabab bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Bundan tashqari, raqamlarning ramziy ifodalari ham mavjud. Turli madaniyat vakillarining nutqi ko'p uchraydigan yoki ular tomonidan yaratilgan asarlardagi raqamlar orqali qandaydir ramziy ma'nolarni bilib olish mumkin bo'ladi.

Shunga ko'ra, bizningcha raqam yoki sonlar orqali kvantitativlikning turli madaniyatlardagi talqinini ko'rar ekanmiz, uni asosiy uch qismga bo'lib o'rganilishi lozim, deb o'ylaymiz:

- 1) diniy asosga ega bo'lgan;
- 2) ramziy holatlarda;
- 3) ijtimoiy vaziyatlarda ifodalanishi.

Diniy asosga ega bo'lgan holatlarda ifodalanishida bir nechta raqamlarning xalqlar hayotida tutgan o'rni va sabablarini misollar yordamida ko'rib chiqmoqchimiz.

Diniy asosga ega bo'lgan va uning natijasida ko'plab madaniyatlarda turli urf-odatlar, marosimlar va biror bir ish harakatning natijasini shu ilohiy raqamga bog'lash kabi holatlarda ko'p uchraydigan bu – *uch*. Bu son bilan bog'liq bir qancha madaniy holatlar, tushunchalar mavjud.

Bu raqamning turlicha talqini borasida ko'plab misollar topiladi. "3 kunlik" konteksti turli madaniyatlarda eng ommalashgan tushunchalardan sanaladi.

Bu ibora turli madaniyatlarda keng tarqalgan bo'lib, ijtimoiy, diniy va milliy qarashlardan kelib chiqqan holda, ma'no anglatadi.

Diniy jihatdan islom dini mamlakatlari madaniyatlarida 3 kun konteksti haqida bir qancha holatlar mavjud.

Zulhijja oyining 3 kuni 11, 12 va 13-kunlari “tashriq kunlar” deb atalib, hayit kunidan keying 3 kun nazarda tutiladi. Bu kunda Allohni ko‘p zikr qilish, tasbeh aytish tavsiya etiladi.

Nafli, ramazon ro‘zalaridan tashqari har oyning uch kuni ro‘za tushishlikdir va u sunnat amallardan hisoblanadi.

Habibim (ya’ni Rasululloh) menga har oyning uch kunida ro‘za tutishni, ikki rak‘at duha namozini o‘qishni va uxlashdan oldin vitr namozini ado etishni vasiyat qildilar (I.Buxoriy, Sahih al-bukhari).

Ijtimoiy amallardan sanalgan mehmonlarni uch kun davomida izzat qilishlik, ularga xizmat qilishlik amallari ko‘p uchraydi.

Kim Allohga va oxirat kuniga ishonadigan bo‘lsa, mehmonini yaxshi kutib olsin: uch kun davomida yaxshi kutib olish majburiyatdir (I.Muslim, Sahih Muslim).

Ko‘rinib turibdiki, 3 kunning ahamiyati katta bo‘lib, diniy bilimlar asosida madaniyatimizga kirib kelgan va milliy marosim, ijtimoiy amallarni bajarishda ahamiyatli hisoblana boshlagan. Ushbu misol orqali o‘zbek milliy urf-odatlar tasvirlangan bo‘lib, to‘y marosimlarining, asosan, uch kun davomida nishonlanishi nazarda tutilgan.

Boshqa madaniyat vakillarining hayotlarida uch kunning ahamiyatli jihatlari ko‘plab topiladi.

Xristian dini vakillarida Iso Masihning xochga qadalgandan so‘ng, uchinchi kuni tirilishi haqidagi e‘tiqod mavjud. Shu sababli ham ijtimoiy amal va marosimlarda uch kunning ahamiyati sezilarli sanaladi.

He was buried, that he was raised on the third day according to the Scriptures/U ko‘milgan va Muqaddas Yozuvlarga binoan, uchinchi kuni tirilgan (Bible/Bibliya).

Xristian dini vakillari uch sonidan qo‘rqadilar. Ularning e‘tiqodida Iso uchinchi sanada o‘ldirilgan degan qarash ham mavjud. Shuningdek, ota, o‘g‘il, muqaddas ruh uchligi ham xristianlar uchun uch soni mazmunini muhimlashtiradi.

Yunon mifologiyasiga ko‘ra, mifologik qahramon Persefona uch kun muddatga yer osti dunyosida bo‘ladi, keyin yer yuzasiga qaytadi. Bu madaniyat vakillarida mo‘l-ko‘llik, hosilning o‘sishi kabi ma‘nolarni ifodalashda namoyon bo‘ladi.

Yapon madaniyatida ham uch kun bilan bog‘liq diniy amallar mavjud. Unga ko‘ra, bola tug‘ilgan kundan keyin uchinchi kuni “Miya Mairi” marosimi o‘tkaziladi va ilk bor Shinto ibodatxonasiga olib boriladi, ibodat qilinadi [2].

Buddizm dini vakillarida Tibet an‘analariga ko‘ra, o‘limdan keyingi uch kunlik juda muhim sanaladi. Ular o‘limdan keyingi uch kun ichida marhum qayta tug‘ilishni istaydi, deb ishonishadi.

Induizm dini vakillarida “Pinda Dann” marosimi bo‘lib, u inson o‘lgandan keyin uchinchi kuni o‘tkaziladi. Ruhini tinchlantirish uchun guruchdan taomlar tayyorlash an‘ana tusiga kirgan.

Shuningdek, turli diniy amaliyotlar, to‘y tantanalari uch kun davomida o‘tkazilishi ham hind an‘anasi hisoblanadi [3,99]. Hind madaniyati vakillari turli diniy va milliy marosimlarni, asosan, toq kunlarda 3-, 5-, 7-kunlarida nishonlash, diniy amallarni bajarish kerak, deb ishonishadi.

Ba’zi madaniy amaliyotlarni bajarishdagi uch kun tushunchasi madaniyatlararo keng

tarqalgan bo'lib, Afrika madaniyatiga tegishli bo'lgan an'analarda qarorlar qabul qilish uchun uch kun kechiktirilishi belgilangan. Ular bu yo'l bilan to'g'ri qarorlash, so'nggi xulosa hamda qarorlar qabul qilish va vaziyat yaxshi tomonga o'zgarishi uchun uch kun zarur, deb hisoblashadi [1,93].

Yahudiylilikda ham yuqoridagi kabi diniy asosga ega bo'lgan “Sukkot festivali” va “uch Pilgrimaj festival”larini nishonlashadi. Unda uch kun davomida maxsus marosim va ibodatlar o'tkaziladi [4].

Shunday qilib, lingvokulturologiya doirasida kvantitativlikning turli madaniyatlar va tillarda qanday ifodalanishini o'rganish til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni anglashga imkon beradi hamda ularning bir-biriga ta'sirini yanada aniqroq tushunish uchun zaruriy asos yaratadi.

References:

1. Bennet T.W. Traditional African Religions in South African Law. – UCT Press, 2011. – P.93.
2. Nelson J.K. Enduring Identities: The Guise of Shinto in Contemporary Japan. – University of Hawaii Press, 2000.
3. Singh. Hind Rites and Rituals (Origins and Meanings). Pegion books, 2016. – P.99.
4. Strassfeld M. The Jewish holidays: A guide and commentary. Harper and Row, 1985.
5. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебное пособие. – М., 2001. – С.8.